



HISTORICAL ROOTS AND EVOLUTION OF FAMILY RITUALS AMONG THE LYULI

Mashhura Abdumuminovna Ruziyeva

Lecturer at Termez University of Economics and Service

Doctor of Philosophy (PhD) in History

mashxura.ruziyeva@mail.ru

Termez, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Lyuli, ethnic group, family rituals, historical roots, migration, ethnography, traditional culture, cultural transformation, customs, rituals.

Received: 20.05.26

Accepted: 21.05.26

Published: 22.05.26

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the historical roots, formation stages, and evolutionary development of family rituals among the Lyuli ethnic group. It examines the ancient cultural layers of the Lyuli people, their migration processes, and socio-cultural adaptation in different regions that influenced the transformation of their traditions. Special attention is given to family rituals related to birth, marriage, and funeral practices, as well as their historical changes and modern manifestations. The study is based on ethnographic and historical approaches and highlights the dynamics of preservation and transformation of Lyuli traditional culture.

LO'LILARDA OILAVIY MAROSIMLARNING TARIXIY ILDIZLARI VA EVOLYUTSIYASI

Mashxura Abdumuminovna Ro'ziyeva

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi,

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

mashxura.ruziyeva@mail.ru

Termiz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: lo'lilar, etnik guruh, oilaviy marosimlar, tarixiy ildizlar, migratsiya, etnografiya, an'anaviy madaniyat, madaniy transformatsiya, urf-odatlar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada lo'lilar etnik guruhida oilaviy marosimlarning tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari va evolyutsion rivojlanish jarayoni kompleks

tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda lo‘lilar madaniyatining qadimiy qatlamlari, ularning migratsion jarayonlari hamda turli hududlarda ijtimoiy moslashuvi natijasida yuzaga kelgan urf-odatlar o‘zgarishi yoritiladi. Shuningdek, oilaviy marosimlar – tug‘ilish, nikoh va dafn bilan bog‘liq an‘analarining tarixiy transformatsiyasi va zamonaviy sharoitdagi ko‘rinishlari ilmiy jihatdan o‘rganiladi. Maqola etnografik va tarixiy yondashuv asosida yozilgan bo‘lib, lo‘lilar an‘anaviy madaniyatining saqlanishi va o‘zgarish dinamikasini ochib beradi.

ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ И ЭВОЛЮЦИЯ СЕМЕЙНЫХ ОБРЯДОВ У ЛУЛИ

Маишхура Абдумуминовна Рузиева

Преподаватель Термезского университета экономики и сервиса

доктор философии (PhD) по историческим наукам

mashxura.ruziyeva@mail.ru

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: лули, этническая группа, семейные обряды, исторические корни, миграция, этнография, традиционная культура, культурная трансформация, обычаи, ритуалы.

Аннотация: В данной статье комплексно анализируются исторические корни, этапы формирования и эволюционное развитие семейных обрядов у этнической группы лули. Рассматриваются древние культурные пласты лули, процессы миграции и адаптации в различных регионах, повлиявшие на трансформацию их традиций. Особое внимание уделяется семейным обрядам, связанным с рождением, браком и похоронными ритуалами, а также их историческим изменениям и современным формам. Работа основана на этнографическом и историческом подходах и раскрывает динамику сохранения и трансформации традиционной культуры лули.

Kirish. Qadimdan va hozirgi kungacha lo‘lilarda boshqa xalqlarga nisbatan marosimlar birlashgan holda tashkil etilgan. G.Snesarev, A.Troitskayalarning yozishicha, XX asr boshlarida lo‘lilarning turli qavmlari o‘zaro yig‘ilib, bir nechta sunnat marosimlarini baravar o‘tkazib, so‘ng

yana har qaysi guruh o'z to'porlariga qaytgan ekan. Lo'lilarning etnik guruhlari marosimlarni alohida-alohida holda, ichki tarzda emas, uyushib o'tkazganlar.

Yevropa lo'lilari va O'rta Osiyo lo'lilari o'rtasidagi asosiy farq turli xil dinda ekanligi hisoblanadi. Yevropa lo'lilari singari O'rta Osiyo lo'lilari ham o'tmishda uy hayvonlari va o'rgatilgan ayiqlar bo'lgan sayohat sirkini ijro etishgan. Bozorlarda xo'roz va bedana olishuvlarini sevuvchi lo'lilarni uchratish mumkin edi.

Bedana janglari Buxoro lo'lilari orasida har haftaning shanba kunlari o'tkaziladigan tomosha turlaridan hisoblanadi. Unda odatiy ikkita jamoa (uchruq va qirg'iz) o'z bedanasi bilan va o'rtada hakam ishtirok etadi. Aynan mazkur tomoshaga Buxoro viloyatining turli qishloqlaridan ishtirokchilar kelishadi va shu orqali lo'li etnografik guruhlari orasida doimiy aloqalar mavjud bo'lishining yana bir o'ziga xos omili vujudga keladi.

Ot sporti musobaqalari ham, shuningdek, mashhur. Qo'shni Afg'oniston lo'lilari orasida ham «bo'zkashi» nomi bilan mashhur ot musobaqalari o'tkazilishi ota-bobolaridan qolgan an'ana hisoblanadi. Raqqosalar va qo'shiqchilar ko'pincha o'z qabilalarining to'y marosimlarida yoki gulxan atrofida chiqish qilishadi. Umumiy xususiyatlar bu ikki etnografik guruh mentalitetining, shuningdek, kundalik turmush tarzining o'xshashligi. Masalan, lo'lilarining chodirlari Yevropa lo'lilarning chodirlariga juda yaqin.

Surxon vohasida yashovchi lo'lilarning milliy o'ziga xos odatlari borki, bu an'ana va odatlar mahalliy aholi odatlaridan farq qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Tarixdan ma'lumki, lo'lilar qadimda Hind diyoridan ko'chib kelishgan. Hind xalqi uchun sigir muqaddas hisoblanadi. Hindlar sigirni so'yishmaydi, sigir go'shtini yeyishmaydi. Shu sababli yaqin-yaqin yillargacha lo'lilar sigir boqishmagan, sigir go'shtini yemaganlar.

Yangi oy chiqqanda duo qilinadi. Yer qimirlaganda, yerga yotib yer tishlanadi. 100 ga kirganda ham tishlar mustahkam bo'ladi. Birinchi ma'nosi, yer qimirlashi tezroq to'xtasin. Ikkinchi ma'nosi, tishlar mustahkam bo'ladi.

Safar oyida uzoqqa chiqilmaydi. Kelin ko'rishga borilmaydi. Ramazon oyida lo'lilar barcha tumanlarga borib uyma-uy ramazon aytib yurishadi [1].

Quyosh tutilganda o'ziga xos odatni amalga oshirishadi. Temirdan yasalgan tovoq, tog'oralarning orqa tomoniga cho'p bilan urib taqillatishadi.

Sherobod tumanidagi Zang qishlog'i oqsoqolining uyida devorga tuyaning tezagi osib qo'yilgan ekan. Buning sababini so'raganimda "Tuya avliyo" degan javobni oldim. Kasal bo'lsa noilojlikdan so'yilmasa, tuyani so'yish mumkin emas ekan. Bozorga solinmas ekan (sotilmas

ekan). Tuyaning tezagi koʻzdan-suqdan saqlar ekan. Otning taqasi ham koʻzdan saqlaydi deb ishonishadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada tanlangan mavzuning ahamiyatini ochib berish uchun ilmiy tadqiqotning analiz, sintez, analogik tahlil kabi metodlaridan samarali foydalanilgan.

Muhokama va natijalar. Oʻtmishda Oʻrta Osiyoning boshqa koʻpgina xalqlarida boʻlgani singari, loʻlilarda ham ortodoksal islom bilan birga islomgacha boʻlgan turli xil diniy eʼtiqodlar uygʻunlashib ketgan. Loʻlilar jinlar, parilar, alvastilar borligiga ishonishadi. Jin-ajina odamni chimchilab ketsa (koʻkarib qolar ekan) mullaga (oʻzbek mullaga) oʻqitishar ekan.

Yangi mashina sotib olinganda, non meva-cheva qilib, oʻzlari yashab turgan yerlardagi «Qoraxon bobo», «Termiz ota», «Sulaymon ota» ziyoratlariga olib borishadi va oʻsha joyda oʻtirgan mulladan duo olishadi.

Tandir, oʻchoqni bola koʻrish yoshidan qolgan erkak va xotin buzadi. Yosh kishiga mumkin emas, ziyon beradi, deb tushuniladi. Rozilik soʻrab, duo qilib keyin buziladi. Denov tumanida joylashgan «Qoraxon» boboga soʻgallarni yoʻqotadi deb ixlos qilishsa, Oltinsoy tumanida joylashgan «Kaptarxona otaga» chipqon, yara-chaqalarni davolashga foydasi bor deb sigʻinishadi [2].

Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida jamoaviylik haqidagi qarashlar oʻzgarib, jamoaga yaxlit umumiy oila sifatida qarash odati saqlanib qolmagan. Ular toʻp-toʻp boʻlib koʻchib yurgan loʻlilardan farqli ravishda, oʻtroqlashish jarayonini boshdan kechirgan baʼzi bir guruh loʻlilarning anʼanaviy madaniyatiga mahalliy aholidan oʻzlashtirilgan madaniyatning koʻpgina elementlari uygʻunlashib ketgan. Bu ayniqsa, nikoh marosimlarida koʻzga tashlanadi. Boshqa musulmonlar kabi urf-odatlar shariat qoidalari asosida oʻtkazilgan. Nikoh marosimlarida ayrim oʻziga xosliklar boʻlib, bu haqida X.Nazarov quyidagicha fikr bildirgan: Moddiy ahvoli ogʻir loʻlilarda kuyov kelinning ota-onasi uyiga borib yashashiga toʻgʻri kelgan (koʻchkuyov) yaʼni, oʻsha yerda yashab turib, qalin pulini ishlab topguniga qadar. Baʼzi hollarda esa nochor oilalar kelin uchun qalin pulini toʻlash va toʻy chiqimlarini koʻtara olishlariga imkon topmasa, oʻzaro kelinlar almashuvi (qarshi quda) haqida kelishib olishgan. Bu holat qoʻshni Afgʻoniston davlatida yashayotgan loʻlilar hayotida ham mavjud ekanligi maʼlum.

Ota-bobomizdan qolgan odat, deb koʻp qizlar yaxshi koʻrgan yigiti bilan qochib ketib, erga tegishadi. Bundan 50 yillar oldin voyaga yetmagan qizlarni «olib qochish» holatlari kamdan-kam holatlarda uchrar edi. Aygʻam bobo (loʻlilarning mashhur oqsoqollaridan biri. Sherobod, Jarqoʻrgʻon loʻlilariga bosh boʻlgan.) voyaga yetmaganlar oʻrtasida shunday holat boʻladigan

bo'lsa, elni yig'ib yigit va qizni muhokama qilgan. Elning oldida ularni etigi bilan urib muhokoma qilardi. Buni ko'rib yoshlar qo'rqib qolar edi. Hozir yoshlar hech kimdan qo'rqmaydi.

Nikoh to'y marosimlarida to'y boshlanishidan to'y tugaguncha bo'lgan davrdagi marosimlarni uch guruhga: nikoh to'yigacha o'tkaziladigan urf-odatlar, nikoh to'yi davrida o'tkaziladigan udumlar va nikoh to'yidan keyin o'tkazilgan rasm-rusumlarga bo'lish mumkin [3].

Yigit va qiz bir-birini sevsa, yigit qizni olib qochib ketadi. Yigitning ota-onasi shu qizga o'g'lining uylanishiga rozi bo'lsa, yigit qizni o'zining uyiga olib boradi. Agar yigitning ota-onasi o'g'lining shu qizga uylanishiga norozi bo'lsa, yigit qizni ya'ni bo'lajak kelinni birorta qarindoshining uyiga olib boradi. Yigitning ota-onasi yoshi katta oqsaqol bilan birga 2-3 kun o'tgach kelinning uyiga o'g'lining qilgan ishi uchun kechirim so'rab borishadi. Ma'lum miqdorda qalin puli berishadi. To'y kun belgilanadi.

Yigit tomon birta qo'y, qalin uchun 4 million so'm, oshning chiqimlari, dasturxonga qo'yiladigan barcha narsani olib keladi. Qarindosh-urug'lar mehmonga chaqiriladi. Qizning uyida yigit tomon to'y qilib beradi. To'yni «Oshtu-huronik» deb atashadi. To'yda musiqa, o'yin-kulgi bo'lmaydi. Qurbi yetsa, istagi bo'lsa yigitning uyida ham to'y qilinadi.

O'tmish sarqitlaridan biri bo'lmish qizlarni yosh erga berish an'anasi bunday holatlarni nazorat qilishning imkoni bo'lmaganligidan lo'li (jo'gi, mo'ltoni) guruhi vakillarida hozirgacha saqlanib kelgan. Chunki, ularning aksariyati tug'ilganligi haqidagi guvohnoma yoki pasportlarining yo'qligi sababli davlat organlaridan ro'yxatidan o'tishmagan. Mazkur holat so'nggi yillarda yana ko'paymoqda.

Lo'lilarda o'tmishda bo'lgani kabi yoshlar ko'pincha ota-onalarining ixtiyoriga ko'ra nikoh qilinmoqda. Ba'zi ota-onalar bolalarining go'dakligidayoq «quloq tishlatib» unashtirib qo'yishsa, yana boshqa birlari yigit va qizlari «bo'yi yetganda» sovchilar yordamida unashtirishmoqda. Biroq shunga qaramay, lo'lilarning «qiz o'g'irlash» odatlari hamon uchrab turmoqda [4].

Surxondaryo vohasida lo'lilarining barcha guruhlarida «fotiha to'yi», «to'y», «yuz ochdi», «ota ko'rdi», «kuyov chaqirdi» kabi marosimlari mahalliy o'zbeklarniki bilan deyarli bir xil tarzda bajarilgan. Faqat, ayrim mayda-chuyda farqlari mavjud bo'lib, bunga lo'lilarda kelin-kuyovning to'y kunining o'zidayoq qovushishini misol qilish mumkin. O'tmishda lo'lilarda mavjud bo'lgan nikohdan o'tayotganda yelkasiga ola xurjun osilgan kelinning eri hamda oilasini boqishi haqida va'da berishi kabi odati endilikda deyarli yo'qolib ketgan.

Lo'lilar ham mahalliy xalqlar kabi bolajon xalq. XX asrning 60-80-yillarida turmush sharoitining birmuncha yaxshilanishi tufayli oilada bola tug'ilishi ko'paygan. Buning natijasida mazkur yillarda oiladagi bolalar soni 5-8 va hatto 10 va undan ham ortgan.

O'troqlashgandan keyingi dastlabki o'n yilliklarda ham lo'li ayollari uy sharoitlarida «ko'zi yorishgan». 80-yillardan boshlab, vaziyat keskin o'zgarib boshlagan. Endilikda lo'li ayollari tug'ruqxonalarda tug'moqdalar.

Lo'lilarda hozirgi kunimizda ham o'tmishda bo'lgani kabi uzoq vaqt (2-3 yil) mobaynida bola ko'rmay, keyin ko'rsa, «yana ko'ray» degan ma'noda kokil qo'yish saqlanib kelmoqda. Surxondaryo vohasida lo'lilari ushbu kokillarni bola ma'lum yoshga kirgandan so'ng Sulaymon ota, Qoraxon bobo kabi muqaddas qadamjolarida jonliq (ko'pincha, tovuq) so'yib «is chiqarish» marosimini o'tkazganlaridan keyingina olib tashlaydilar [5].

Bola tug'ilgandan so'ng, mahalliy xalqlarda bo'lgani kabi, barcha guruh lo'lilarida «chilla» saqlanadi. Chilla, asosan, kelinning ota-onasinikida saqlanadi. Agar kelinning ota-onasiniki uzoq bo'lsa, unda kuyovning uyida chilla saqlanadi. Lo'lilar turg'unlashganlaridan keyin ham yana ko'p yillar davomida belanchakdan foydalanishgan. Beshikdan keng ko'lamda foydalanishgan.

XX asrning 50-60-yillarida yangi tug'ilgan chaqaloq uchun beshikni mahalliy o'zbeklarda bo'lgani kabi lo'lilarda ham kelinning ota-onasi bozordan sotib oladilar. Go'dak tetapoya qilib yura boshlaganda uning ota-onalari qo'shni bolalarni chaqirib shirinliklar ulashadi.

O'rganilayotgan hududda lo'li (jo'gi, mo'ltoni) guruhida birinchi bola tug'ilgandan so'ng xotinning boshiga ro'mol o'rash - «lachak bandon» marosimi hozir ham mavjud [6].

Endilikda lo'lilarda bolaga an'anaviy (masalan, Muhammad, Muharram va hokazo shu kabi) ismlar qo'yish bilan birga zamonaviy (masalan, Ruslan, Elmira kabi) ismlar qo'yish ham yildan-yilga ko'payib bormoqda.

Lo'lilarda er xotinini bolasining oti bilan chaqiradi. Lo'lilarda «sunnat to'y» marosimlari ham atrofdagi mahalliy aholinikiga deyarli o'xshash. Sunnat to'ylari, asosan, bola maktabga borguncha bo'lgan davrda, ya'ni 5-7 yoshlarda o'tkaziladi. Lo'lilarda sunnat to'ylari «chikpurn» ham deb ataladi.

XX asrning 70-80-yillarida sunnat to'ylar bir necha kunlab yurtga osh berib o'tkazilgan. 1990-yillarga kelib, iqtisodiy qiyinchiliklar sababli bir necha kunlab sunnat to'y qilishlar barham topa boshladi. Zero, iqtisodiy qiyinchiliklar davrida ortiqcha sarf-xarajatlar to'y egalari to'ydan keyin og'ir ahvolga solib qo'yadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «to'y-hasham, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni o'tkazishda dabdababozlik va isrofgarchilikning oldini olish» haqidagi farmoni ayni muddao bo'ldi.

Endilikda lo'lilar istiqomat qilayotgan hududlarning mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari to'y (sunnat, nikoh) marosimlarini tartibli hamda ortiqcha sarf-xarajatsiz o'tkazishda faollik ko'rsatmoqdalar [7].

Azaldan lo‘lilarda islom ta‘limotlarini biladigan savodli kishilarning yo‘qligi sabab bo‘lsa, ikkinchi tomondan sovet hukumatining dinga qarshi qaratilgan siyosati ustiga-ustak bo‘ldi. Lo‘lilar turg‘unlashganlaridan keyingi davrlarda ham ulardan islom ta‘limotini biladigan din peshvolari yetishib chiqmagan. Shu bois, barcha guruxdagi lo‘lilarda islom diniga e‘tiqod darajasi atrofdagi o‘zbek va tojiklarga qaraganda pastligicha qolavergan. “Qur’oni Karim” oyatlaridan ayrim parchalarni ko‘pincha keksalargina bilishgan. Buning asosiy sababi, atrofdagi musulmon aholi nazarida xudojo‘y bo‘lib ko‘ringan keksa lo‘lilar ko‘pincha moddiy foydani ko‘zlashgan. Zero, aksariyat lo‘lilar sadaqa hisobiga yashashgan.

Shuningdek, lo‘lilarda islomgacha bo‘lgan turli diniy e‘tiqodlar hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotganicha yo‘q. Masalan, lo‘lilar jin, pari, alvastilarning borligiga, tumor va munchoqlarning kuchiga hamda piyoz, qalampir, non va pichoq, taqalarning yomon kuch hamda ko‘zlardan saqlashiga ishonishadi.

Lo‘lilarda dafn marosimlari mahalliy xalqlarda bo‘lgani kabi islom dini qoidalari asosida amalga oshiriladi. Barcha guruh lo‘lilarda qabrlarga qabr toshi o‘rnatish keng rasm bo‘lgan. Lo‘lilar o‘rnatgan qabr toshlari mahalliy aholinikidan sifati bo‘yicha emas, balki son jihatidan ko‘pligi bilan alohida ajralib turgan.

Mahalliy aholi bilan yonma-yon yashab, o‘troq hayotga o‘tib boshlashgan lo‘lilar to‘p-to‘p bo‘lib istiqomat qilishib, yashagan joylarida ularning alohida qabristonlari ham vujudga kelgan. Alohida qabristonlariga ega bo‘lmagan lo‘lilarga mahalliy aholi qabristonlaridan alohida yer ajratib berilgan. Hozirgi paytda aralash qabristonlar soni ortib bormoqda [8].

Mahalliy an‘analarining qaror topishi va lo‘lilarning o‘troqlashishi natijasida o‘zbek xalqining qadriyatlarini o‘zlashtirishdi. Endilikda, lo‘lilar yashaydigan har bir hudud mahalla yoki qishloqlarda kechayotgan jarayonlarga mahalla oqsoqollari, xotin-qizlar kengashi hamda mahalla fuqarolari yig‘inlari bosh-qosh bo‘lmoqdalar.

O‘rta Osiyo xalqlarining yuksak ma‘naviy qadriyatlaridan biri bo‘lgan hashar Surxondaryo vohasida lo‘lilarining barcha guruhlarida ham keng tarqalgan. Lo‘lilar yashaydigan qishloqlarda uylar hashar yo‘li bilan qurilmoqda, obodonlashtirilmoqda. Bunga viloyatda mavjud bo‘lgan barcha lo‘lilar istiqomat qilayotgan mahallalarda amalga oshirilayotgan ishlarni misol qilishimiz mumkin.

Milliy urf-odatlar, ayniqsa, to‘y marosimlarida yaqqol aks etadi. Balog‘at yoshiga yetgan yigitni uylantirish uchun sovchilar munosib qiz topishga harakat qiladi. Ko‘p holatlarda kelinni yaqin qarindosh urug‘lar ichidan tanlashadi, yoki yigitning o‘zi tanlaydi. Erkinlik, dadillik lo‘lilarga xos xislat hisoblanadi. Dastlab sovchilikka 3-4 ta oqsoqol va yigitning otasi borishadi.

Darrov rozilik berishmasa, yana qayta boriladi. Rozilik olingach, non sindirish marosimi bo'ladi. Yigit tomon qozonni, dasturxonni obod qiladigan barcha narsani olib boradi. Katta mehmondorchilik bo'ladi. 4-5 ta non sindirib tarqatiladi. Qalin puli beriladi, pulning ma'lum miqdorini to'yga kelgan ikki tomon mehmonlariga tarqatiladi (5-10 mingdan). Oqsoqolga, ayollarga sarpo beriladi [9].

Qizni olib ketadigan kundan 1 kun oldin katta qo'y (oldinlari 4-5 ta qo'y) olib boriladi. Xatim o'qitiladi. To'y kuni 100-200 ta non, qatlama, qatpatir, meva-cheva, kelin uchun kiyimlar olib boriladi. Kelin ayollarning oldiga chiqadi, yoshi katta ayol qatlamani kelinga tishlatadi. Kiyimliklarni kelinga o'lchab ko'rsataveradi. Uzuk taqadi. Yigit tomondan bo'lgan kayvoni bir ayol bu ishlarni amalga oshiradi. Mehmondorchilik bo'ladi. Kelin uchun ota-onasi qilgan mebel, ko'rpa-to'shaklar, idish, tovoq, qozonlar yigit tomon olib borgan yuk mashinasiga ortiladi. Kelin bilan bir vaqtda yuki ham uydan chiqadi. Uydan chiqquncha ota fotiha beradi. Yigitning ota-onasi o'g'illari uchun atagan ko'rpa-to'shaklar bilan uyni sozlab qo'yishadi. Kuyovnikida hovlida to'y qilinadi. Oldinlari yerga joy qilingan, hozir prokatga stol-stul olib kelinadi. Imkoniyati yo'qlar yerga joy qiladi va u «qur» deb aytiladi.

Qadimdan qolib kelayotgan yana bir odat borki, to'y egasi uyma-uy, qishloqma-qishloq, tumanma-tuman yurib, qarindosh urug', tanishlarni to'yga shaxsan o'zi taklif qilib chiqadi. Aks holda bizni chaqirishmadi, deb to'yga kelishmaydi. Mehr-oqibatning, qarindoshlar o'rtasidagi hurmatning bir ko'rinishi yillar o'tsada saqlanib qolayotganidan darak beradi.

Xulosa qilib aytganda, lo'lilarda oilaviy marosimlar qadimiy tarixiy ildizlarga ega bo'lib, asrlar davomida shakllangan ijtimoiy-madaniy qadriyatlar tizimini ifodalaydi. Ushbu marosimlar jamiyat hayotining muhim bosqichlari – tug'ilish, nikoh va vafot bilan bog'liq bo'lib, ular orqali oilaviy va jamoaviy munosabatlar mustahkamlanadi. Biroq bu o'zgarishlar an'anaviy qadriyatlarning to'liq yo'qolishiga olib kelmagan, aksincha, ularning yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashuvini ta'minlagan. Shunday qilib, lo'lilarning oilaviy marosimlari tarixiy davomiylik, madaniy moslashuv va etnik o'zlikni saqlash jarayonining yorqin ifodasi bo'lib, ular bugungi kunda ham o'zining ijtimoiy va madaniy ahamiyatini yo'qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dala yozuvlari, Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumani, Qo'shtepa qishlog'i, 2022-yil oktabr.
2. Dala yozuvlari, Surxondaryo viloyati Denov tumani, Qoraxon qishlog'i; Sariosiyo tumani, Niloba qishlog'i. 2022-yil, avgust.

3. Dala yozuvlari, Surxondaryo viloyati, Denov tumani, Olovuddin qishlog‘i, 2022-yil, avgust.
4. Dala yozuvlari, Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumani, Niloba qishlog‘i, 2023 - yil, aprel.
5. Dala yozuvlari, Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, Lo‘li qishlog‘i, 2022-yil avgust.
6. Dala yozuvlari, Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, Sherobod qishlog‘i, 2022-yil, avgust.
7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi.1998. - № 10-11 (1270 - 1271), oktabr-noyabr. –B. 29-30.
8. Qoryog‘diyev Z.Buxoro lo‘lilarining ijtimoiy hayoti va madaniyati. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, 2021. – B. 56.
9. Назаров Х. Современное этническое развитие среднеазиатских цыган (люли)//Этнические процессы у национальных групп Средней Азии и Казахстана. – Москва: Наука, 1980. – С.170.